

O'ZBEK TILINI O'QITISHDA YANGICHA YONDASHUV ZARURAT

Mohidil Joniqulovna, tadqiqotchi

Yangi O'zbekiston ulkan islohotlar, yangi-yangi g'oyalar, innovatsiyalar qurshovida. Barcha soharalarda katta-katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan ta'lim sohasida ham. Ta'lim xususida gap ketganda o'zbek tilini o'qitish masalasi birinchi o'ringa chiqadi. Shu o'rinda haqli savol tug'iladi: amaldagi davlat dasturi o'zbek tilini o'qitishda qanchalik samara bermoqda? Uning qanday yutuq-kamchiliklari bor? Albatta yutuqlari bor, ammo kamchiliklarining zalvori og'irroq, ming afsuski. Eng asosiy kamchiliklarga to'xtalib o'tamiz

1-kamchilik: o'zbek tilini o'qitish metodi eskirgan.

qaratilmagan.

3-kamchilik: darslikdagi chalkashliklar, tushunarsiz, noaniq qoidalar.

4-kamchilik: darsliklar haddan ortiq ilmiylashib ketgan, real hayotdan uzoqlashib ketgan.

5 -kamchilik: o'zbek tilini o'qitishda yozma topshiriqlarga tayanib qolingan.

Kamchiliklarga kengroq to'xtalib o'tamiz. darsliklarini tuzish

1. O'zbek tili metodikasi shakllanib o'zbek tili fani o'qitilib boshlangandan buyon uslub bir xil o'zgarmagan. XX asrda ham o'sha edi, hozir ham o'sha. Ota-bobolarimiz shunday o'qigan, biz shunday o'qidik, farzandlarimiz shunday o'qimoqda. Ming afsuski bu achchiq haqiqat. Faqat kitobning ko'rinishi, rangi, rasmlari, mashqlari o'zgargan xalos. 2-sinf dan to 11-sinfgacha qoida yotlaydi, mashq yozadi. Bir xillikdan zerikadi, bezor bo'ladi, darsdan soviydi. Natijada uning ongida ona tili zerikarli, keraksiz fan degan tushuncha paydo bo'ladi. O'z-o'zidan bu fanni bir chetga surib qo'yadi. Darsda berilgan topshiriqlarni (mashq ko'chirish), yoki uyga vazifani (mashq ko'chirish) xafsalasiz shunchaki yozib qo'yadi. Hech bir qiziqishsiz.

2. Ona tili darsliklarini tuzishda e'tibor qaratilmagan. Ya'ni 1-11- sinflar darsliklarini tuzishda mavzular soddadan murakkabga qarab o'sib borishi bo'yicha berilmagan. Ayrim darsliklarda hali o'tilmagan mavzulardan ham topshiriqlar berilgan. 7-8-sinflarning darsliklarida murakkab mavzular berilgan, ma'lumot ham ko'p. 10-11-sinfda esa sodda mavzular berilgan. 10-sinfda bir yillik madaniyat astur faqat nutq uslublari va uslubiyat haqida. 11-sinfda esa nutq madaniyati va madaniy nutq sifatleri haqida. Aslida bu mavzularni 3-4 darsda o'rganib qo'ysa bo'ladi. O'quvchining yosh, bilim saviyasi hisobga olinib darslik tuzilishi kerak. Ammo guvoh bo'lganingizdek bunday emas. Yana bir kamchilik mavzular takrorlanadi. Ayrim murakkab mavzularga kam soat ajratilgan, sodda mavzularga ko'p soat ajratilgan. Shu kabi chalkashliklar juda ko'p.

3. Ayrim darsliklarda berilgan bir qoidani boshqa biridagi inkor etadi. Bunday hol anchagina. Masalan, urgu haqidagi mavzuda 5-11-sinflarda akademik so'zida ikki xil. Qolaversa, ayrim darsliklarda qoidalar tushunarsiz. Yarim bet berilgan, lekin noaniq. Haddan ortiq ilmishlashtirib yuborilgan. Yana bir kamchiligi atamalarning turlicha nomlanganligi: bir kitobda so'z o'zgartiruvchi qo'shimcha deyilsa, boshqasida shakl yasovchi qo'shimcha deyiladi va boshqalar.

4. O'zbek tilini o'qitish haddan ortiq ilmiylashtirib yuborilgan, real hayotdan deyarli uzilib qolgan. Har bir qoida, o'rganilgan ma'lumot faqat kitobdagi mashqni bajarish uchun kerakdek. Amalda uning hech qanday foydasi yo'q, umuman yordami tegmaydi. Bunday bilim berish nimaga kerak? Barcha fanlarni o'rgatishdan maqsad hayotda foyda keltirishi emasmi? Mana oddiy misol: kimyo fanida biz Fe-temirni o'rganamiz. Va bu bilimlarimiz hayotda asqotadi. Endi ona tilini ko'ramiz. So'z birikmasi mavzusida "paxta gulli chinni payola"ni o'rganamiz. "Otli birikma, bitishuv yo'li bilan bog'langan". Xo'sh real hayotda buning nima keragi bor? Mana shu tahlilni bilmagan odam paxta gulli chinni payola nimaligini bilmaydimi?! O'zbek tilida 80mlndan ortiq so'z bor. Mazkur so'zlarning har birini tahlil qilishning imkoni bormi?! Yo'q, bo'lganda ham kimga kerak? Nima foydasi bor. To'g'ri yozishni, to'g'ri talaffuz qilishni chidabilsa shuning o'zi yetarli. Miridan-

sirigacha mayda-mayda qilib o'rganishning hech keragi yo'q. O'zbek tilining eng asosiy xususiyatlarini, o'zagini o'rgatsak bo'lgani.

5. Darsliklarning yana bir jiddiy kamchiliklaridan biri yozma topshiriqlarga tayanib qolinganligi. Mavzularni mustahkamlash uchun berilgan barcha topshiriqlar yozma bajarilishi kerak. Bir mavzuda 5-6ta mashq bor, nega? 11-sinfgacha o'quvchilarning husnixati ustida ishlamaymiz-ku. Mavzuni mustahkamlash uchun 1-2tasi yetadi. Maktabda 11yil yozma topshiriq bajargan o'quvchida nutq qanday, qachon rivojlanadi. Matematikadami yoki fizikadami? To'g'ri, chiroyli gapirishni aynan ona tilida o'rgatishimiz kerak-ku?!

Kamchiliklarni bartaraf etish uchun nima qilish kerak?

O'zbek tilini o'qitishni tubdan o'zgartirish shart. Grammatik prinsipdan voz kechib kommunikativ prinsipga o'tishimiz lozim. Ya'ni fanni real hayotda kerak bo'ladigan bilimlar berishga moslashtirib qayta tuzish kerak. Asosiy e'tibor og'zaki nutqni o'stirishga qaratilishi, ona tilining asosiy o'zagi o'rgatilishi kerak. Darsliklar ham shunga mos ravishda soddalashtirilib qayta tuzilishi maqsadga muvofiq. Real hayotda keragi bo'lmaydigan bilimlarni berishni to'xtatib, bolani chiroyli gapirishga o'rgatish vaqti keldi. Birinchi navbatda mazkur fandagi chalkashliklarni bartaraf etib, yagona me'yor-norma ishlab chiqilsa, ayni muddao bo'lardi.

Shunda tushunmovchiliklar ham bo'lmasdi. O'zbek tilini o'rganishga ishtiyoq ham ortardi. Qachonki, insonga olgan bilimi foyda keltirsa, qiziqishi ortadi. Yanada ko'proq o'rganishni istaydi. Ona tilini o'quvchining eng sevimli faniga aylantirsak, o'zi xohlab, qiziqib o'rganadi. Kelajakda qaysi sohani egallamasin o'z ona tilini bir umr ardoqlaydi, asrab-avaylaydi. O'z tilini, vatanini qadrlaydi, yurti uchun jonini fido qiladigan chin vatanparvar bo'lib ulg'ayadi. Mizning bosh maqsadimiz ham shu aslida.